

## ZAMONAVIY KASBLARNI O'RGANISHDA XORIJIY TILLARNI AHAMIYATI

*Isroilova Oqilaxon Abdurasulovna*

*Farg'ona viloyati Farg'ona Transport va servis texnikumi*

*Kasbiy faoliyatda chet tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada professional ta'lim tizimida xorijiy tillarni ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** professional ta'lim, xalqaro tasniflagich, interfaol metodlar, an'anaviy dars, zamonaviy texnologiyalar, IELTS, CEFR.

*«Ilmning avvali sukut, so'ng eshitish, so'ng yod etish, so'ng amal qilish, so'ng uni tarqatishdir»*

*Imom G'azzoliy*

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar professional ta'lim muassasalari toifasiga kiradi.

Kasb-hunar maktabi-Xalqaro tasniflagichning 3-darajasigacha mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Professional ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan talabini, manfaatdor vazirliklar va idoralarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hamda oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Kasb-hunar maktablarida har bir o'quvchini kasbni egallashi va hayotda o'z o'rnini topishida, o'z kasbini mohir ustasi bo'lib yetishishiga astoydil harakat qilinadi. Kasbga yo'naltirish, bu kasbiy o'zini o'zi aniqlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Kasbga yo'naltirish maqsadi- o'quvchining ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir o'quvchi iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi.

XXI-asr shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika va bilim asridir. Jamiyatning har bir sohasi taraqqiyot sari ildam qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Davr talabi- har bir o'qituvchini oldiga o'z ustida ishlashi, bilimli bo'lishi va o'quvchiga bilimni yetkazib, tushuntirib, fanga oid bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishga erishishlari kerakligini muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Har bir fanni ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan

biri hisoblanadi. Yuqorida professional ta'lim tizimidagi yangi davrda **xalqaro tasniflagich** so'zini ishlatib o'tdik. Bu kasbiy faoliyati haqidagi diplomga egabo'lgan har bir o'quvchi dunyo standartlariga javob bera oladigan diplomga egaligi vashu diplomga loyiq bilm darajasi borligi ni ta'minlash bevosita professional ta'lim tizimi hodimlarining asosiy vazifasi ekanligini talab qiladi. Professional ta'lim tizimi hodimlari sifatida ingliz tili fani o'qituvchilari ham bu borada ma'suldirlar. Ingliz tilini o'rganish -chet el bilimlarini o'rganish va chet elda ishlash, malaka oshirish imkoniyatini beradi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 640 –sonli qarori qabul qilingandan so'ng yurtimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bo'sqich, yangucha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra kasb-hunar o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari yangi axborot kommunikativ texnikalar kompyuter, televizorlar, internet tarmog'i bilan jihozlandi. Oquvchilarda chet tilini o'rganishga bo'lgan hohish kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. O'qituvchi ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanganda, darsda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda bunday kommunikativ texnologiyalardan foydalanishning bir qancha ahamiyatli ustunliklari mavjud. Hozirda chet tili ko'nikmalarini baholashning IELTS, CEFR, TOEFL kabi testlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarda texnologik vositalardan foydalanish chet tilining har bir aspektini o'rgatishda noan'anaviy hamda interfaol topshiriqlar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan qo'l keladi. Masalan, tinlab tushunish qismi uchun, albatta, turli qurilmalar, player, CD disklersiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan ham zamonaviy texnologiyava metodlardan foydalanish talab etiladi.

Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsad o'sha tilda bemalol muloqat qila olishdir. Chet tillarni o'rgatish va o'rganish uzoq va mukammal jarayon. U kishidan muntazam mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. O'g'zaki nutq malakalarni o'stirish uchun chet tillarni o'qitish jarayonida har xil interfaol o'yinlardan qo'llash

chet tilini o`rganishni zerikarli emas, aksincha qiziqarli va sevimli mashg`ulotga aylantirishi aniq. Interfaol o`yinlar tilni o`rganuvchilar o`zlarini ancha erkin tutishlarini hatto uyatchan o`quvchilarni ham ushbu o`yinlarda qatnashishga undaydi interfaol o`yinlarni ayniqsa grammatika va so`z boyligini ortirish uchun qo`llash samaralidir. Ammo bu o`yinlarni qo`llashdan oldin o`qituvchi o`quvchilarga o`yindan ko`zlangan maqsadni o`yin qoidalarni aniq tushuntirishi va o`tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog`lashi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent – 2012 yil
2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o`qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. – 2017. – № 4.2 (138.2). – С. 36-37. – URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
3. N.Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo`llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo`llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. О'. Hoshimov, I. Yoqubov. “Ingliz tili o`qitish metodikasi” (o`quv qo`llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003 Муминова, Ф. М. Муминова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 18 (308). – С. 590-592. – URL: <https://moluch.ru/archive/308/69404/> (дата обращения: 20.01.2022)